


## Yuridik shaxs maqomiga ega korxonalar va tashkilotlarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

**Samarqand viloyati bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi** 2022- yilning yanvar-iyun oylarida **2 663,2** ming so'mni tashkil etdi va buni hududlar bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Samarqand shahrida **3 395,6** ming so'mni viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **127,5 %** ni tashkil etgan.

Boshqa hududlarga nisbatan past ko'rsatkich Kattaqo'rg'on tumanida **2 143,0** ming so'mni (80,5 %), Payariq tumanida **2 163,3** ming so'mni (81,2 %), Paxtachi tumanida **2 172,7** ming so'mni (81,6 %) tashkil etib, shahardagi o'rtacha ish haqiga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

### Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan

(2022- yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, % da)




### Hududlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm


*(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)*

	<i>2021- yil yanvar- iyun</i>	<i>2022- yil yanvar- iyun</i>	<i>O'sish sur'ati, %</i>
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>2 291,5</b>	<b>2 663,2</b>	<b>116,2</b>
<b>Samarqand sh.</b>	2 904,4	3 395,6	116,9
<b>Kattaqo'rg'on sh.</b>	2 069,1	2 544,3	123,0
<b>tumanlar</b>			
<b>Oqdaryo</b>	1 858,6	2 240,8	120,6
<b>Bulung'ur</b>	1 927,0	2 197,1	114,0
<b>Jomboy</b>	2 298,6	2 385,6	103,8
<b>Ishtixon</b>	1 861,7	2 268,2	121,8
<b>Kattaqo'rg'on</b>	1 826,3	2 143,0	117,3
<b>Qo'shrabot</b>	1 951,7	2 175,5	111,5
<b>Narpay</b>	2 015,8	2 425,1	120,3
<b>Payariq</b>	1 943,4	2 163,3	111,3
<b>Pastdarg'om</b>	1 936,4	2 271,0	101,1
<b>Paxtachi</b>	1 818,1	2 172,7	117,3
<b>Samarqand</b>	2 074,6	2 441,9	117,7
<b>Nurobod</b>	2 100,6	2 569,5	122,3
<b>Urgut</b>	2 113,9	2 322,1	109,8
<b>Toyloq</b>	2 021,1	2 504,4	123,9

## Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



## Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2022- yil yanvar-iyun, viloyat ko'rsatkichiga nisbatan)



➤ **Sanoatda** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 931,9 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 11,8 % ga ko'paygan.



**Qurilish sohasida** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3 255,4 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 12,6 % ga ko'paygan.

➤ **Savdo sohasida** o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 1 834,2 ming so'mni tashkil qildi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 4,4 % ga oshdi.



➤ **Tashish va saqlashda** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3 249,2 ming so'mni tashkil qildi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 48,6% ga oshdi.

➤ **Axborot va aloqa** sohasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 4 534,4 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 45,6 % ga oshdi.



**Moliya va sug'urta** faoliyati sohasida o'rtacha nominal hisoblangan ish haqi miqdori 5 882,0 ming so'mni tashkil qildi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 9,6 % ga oshdi.

➤ **Ta'lim sohasida** o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 460,9 ming so'mni tashkil qildi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 15,0 % ga oshdi.








➤ **Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar** sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 2 285,6 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 16,2 % ga oshdi.

**Boshqa faoliyat turlari** sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori 3 018,6 ming so'mga to'g'ri keldi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 19,6 % ga oshdi.



## O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2022- yil yanvar-iyun oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so'm)


	2021- y.	2022- y.
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>2 291,5</b>	<b>2 663,2</b>
<b>Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha</b>		
 <b>Sanoat</b>	<b>2 621,3</b>	<b>2 931,9</b>
 <b>Tashish va saqlash</b>	<b>2 186,4</b>	<b>3 249,2</b>
 <b>Savdo</b>	<b>1 757,3</b>	<b>1 834,2</b>
 <b>Axborot va aloqa</b>	<b>3 113,9</b>	<b>4 534,4</b>
 <b>Moliya va sug'urta</b>	<b>5 366,7</b>	<b>5 882,0</b>
 <b>Ta'lim</b>	<b>2 140,2</b>	<b>2 460,9</b>
 <b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar</b>	<b>1 966,5</b>	<b>2 285,6</b>
 <b>Qurilish</b>	<b>2 889,7</b>	<b>3 255,4</b>
 <b>Boshqa faoliyat turlari</b>	<b>2 524,4</b>	<b>3 018,6</b>

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati, % da.

(2022- yil yanvar-iyun oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

Samarqand viloyati bo'yicha 2022- yil yanvar-iyun oylarida 2021- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati tashish va saqlashda sohasi **148,6 %**, axborot va aloqa sohasida **145,6 %**, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida **116,2 %**, ta'lim sohasida **115,0 %** bo'lganligi kuzatildi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022 - yil yanvar-iyun oylarida eng yuqori bo'lgan ish haqi, ming so'mda





### Ma'lumot uchun:

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2022-yil iyun oyidan **920 000** so'mni tashkil etgan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022-yil 20-maydagi PF 138-sonli farmon) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



*"Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi" (66) 235-72-35*